

MUZEY HALQNING TARIXIY XOTIRASI.

Наманган вилоят тарихи ва маданияти давлат музейи илмий ходими:

M. Mamadaliyeva

Muzey xalqning tarixiy xotirasi, chunki u moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'playdi, saqlaydi, o'rganadi va targ'ib qiladi. Muzeylar xalqning o'tmishini, madaniy merosini va qadriyatlarini saqlab, kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.



Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'ulari va buyuk o'tmish haqidagi g'oyalarni, milliy g'urur va ma'naviyat tushunchalarni keng targ'ib qilish, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot va ijod yo'llarini keng ko'lamda o'rganish, tarixiy xotiraga hurmat ruhini saqlash, madaniy meros tushunchasining ahamiyati va ushbu jarayonda muzeylarning tutgan o'rnini haqida so'z boradi. tarixiy, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va tashvik, qilish kabi ishlarni amalga oshiruvchi ilmiy ma'rifiy, ma'naviy maskan. Uzining ekspozitsiya va

ko'rgazmalari vositasida ilmiy tashviqot va ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Muzeylarta qiziqish qadimdan boshlangan. Tarixiy manbalarning shohidligicha ilk muzey mil. av. 3-asrda Iskandariyada muzalarga atalgan binoda — Muzeyonda kad. san'at yodgorliklari majmuasi sifatida tashkil etilgan. O'zbekistonda xam 19-asrning 4-choragi boshlaridan Tarix muzeylariga qiziqish boshlangan. Toshkentdagi O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Samarqanddagi "Afrosiyob", shuningdek, Samarqand Davlat birlashgan tarixiymе'moriy va badiiy muzey qo'riqxonasi, Xivadagi "Ichanqal'a" qo'riqxonasi kabilar katorida mustakillik yillarida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasida Temuriylar tarixi davlat muzeyi — 1996-yil; Olimpiya shonshuhrati muzeyi — 1996.; "Katag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi — 2002-yil; Toshkent tarixi muzeyi — 2003-yil; Surxondaryo viloyati arxeologiya muzeyi — 2002-yil kabi yangi muzeylar faoliyat olib bormoqda. Respublikamizdagi bir qator o'lkashunoslik muzeylaridagi tarix fani yo'nalishidagi bo'limlar zamona ruhiga moslab ta'mirlandi. O'zbekiston tarixida yangi qo'lga kiritilgan yutuklar asosida boyitildi. Tarix muzeylariga UzR Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martdagi "O'zbekiston Respublikasi madaniy boyliklarining olib chiqilishi va olib kirilish masalasini tartibga solish to'g'risida"gi qarori tufayli O'zbekistondagi Tarix muzeylari dunyoning tanikli muzeylari ridan joy olmoqda. Hozir jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanishida Tarix muzeylarining tadqiqotchilik o'rni salmoqlidir. Tarix muzeylarining asosiy maqsadi xalq taqdiri bilan bog'liq bo'lgan tarixiy jarayonlarni xolis yoritish va keng mushoxada etib ilmiy tadqiq etishdir.



Turkiston o'lkasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustamlakachilik siyosati oqibatida siyosiy, madaniy, iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi. O'lkaning ilg'or ziyolilari Chor Rossiyasi istibdodidan qutulish, millatni uyg'otish, nafaqat iqtisodiy, balki madaniy taraqqiyot sari yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish maqsadida ma'rifatparvarlik harakatiga asos soldilar. Muzeyning ikkinchi bo'limi ana shu jarayonlarga bag'ishlangan bo'lib, unda jadidlarning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotni yangilash, jamiyatda islohotlar o'tkazishga qaratilgan faoliyatlari o'z aksini topgan. Ma'rifatparvarlarning millat kelajagi yo'lidagi bu harakatlari mustamlakachi hukumat tomonidan qattiq tazyiqqa uchradi. Ammo ma'rifatparvarlik harakati tazyiq va ta'qiblarga qaramay, keng quloch yoya boshladi va ayrim jabhalarda yashirin tarzda davom etdi. Turkistonda bu harakat jadidchilik deb nom oldi. Bo'limdagi ekspozitsiyalarda ma'rifatparvarlik harakatining eng faol namoyandalarining suratlari, yangi usul maktablari, o'sha davrda chop etilgan milliy matbuot namunalari aks ettirilgan, Qo'qon, Andijon teatr havaskorlari milliy teatr truppalari sahnalashtirgan teatr afishalari o'z aksini topgan.



2000-yil 12-may kuni Toshkentning Yunusobod tumanida barpo etilgan “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuining tantanali suratda ochilishi mamlakat va xalqning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hayotida ulkan voqea bo’ldi, qisqa muddatda mazkur majmua tabarruk ziyoratgohlardan, yosh avlodlarni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan maskanlardan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2001-yil 1-may sanali “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida”gi Farmoni asosida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuida “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi barpo etildi.

Muzey 2002-yil 31-avgustda – mamlakatda ilk bor nishonlangan “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni”da tantanali ravishda ochildi. Sovet hokimiyatining zo‘ravonligi xalqning keskin qarshiligi va noroziligiga sabab bo‘ldi. Butun o‘lka bo‘ylab sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakati boshlanib ketdi. Bu harakat, ayniqsa, Farg‘ona vodiysida keskin va ommaviy tus oldi. Qarshilik harakatiga Madaminbek, katta Ergash, Shermuhammadbek kabi mahalliy sardorlar yetakchilik qildilar. Ekspozitsiyada Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi 1918-yil fevralda boshlanib, 1924-yilgacha davom etgan qurolli qarshilik harakati o‘choqlari aks ettirilgan. Mazkur bo‘lim Sovet hokimiyatining iqtisodiy sohada olib borgan qatag‘on siyosatiga bag‘ishlanadi. Sovet hokimiyati 20-yillar oxiri – 30-yillar boshida amalga oshirgan yer-suv islohoti, kollektivlashtirish, xususiy mulkni tugatish, sanoat va qishloq xo‘jaligida davlat monopoliyasini o‘rnatish siyosatini amalga oshirish jarayonida “quloqlashtirish” kampaniyasi o‘tkazilib. bolsheviklar minglab xo‘jaliklarning yer-suvini davlat ixtiyoriga tortib oldilar. Ekspozitsiyada qayd etilgan ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, sovet hokimiyati nafaqat yirik yer egalari, balki xususiy ishlab chiqarish vositasiga ega bo‘lgan hunarmandlar, savdogarlar, ijaraga mulk va vosita berganlar, yollanma mehnatdan foydalangan tadbirkorlar, o‘rtahol dehqonlar, diniy ulamolar ham uy-joyi, mol-mulkidan mahrum etilib, “quloq” sifatida oila a‘zolari bilan birga o‘z yurtidan badarg‘a qilindi. Undan O‘zbekistondan chetga va O‘rta Osiyoga surgun qilingan “quloq”lar manzillari,

surgun yo‘nalishlari aks ettirilgan 5 ta xarita, “quloq” qilinganlar surgunga olib ketilgan poyezd vagoni va ular yashagan chayla-yerto‘la maketlari o‘rin olgan. Ekspozitsiyaga joylangan videomateriallarda “quloq” qilingan oilalar farzandlarining xotiralari o‘rin olgan bo‘lib, ular qanday og‘ir sharoitlarda yashab, mehnat qilganlari haqida ma’lumot beradi. 30-yillar boshiga kelib ma’muriy-buyruqbozlik tizimi mustahkam qaror topib, bolsheviklar mafkurasini keng targ‘ib qilishga zo‘r berila boshlandi. Aynan shu davrda mazkur mafkuraga hamda sovet hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohalarda zo‘ravonlik bilan olib borgan g‘ayriilmiy, g‘ayriinsoniy va g‘ayriqonuniy islohotlarga qarshi bo‘lgan kishilarga qarshi ta’qib va tazyiqlar kuchaydi. Xususan, bolsheviklar mafkurasiga qarshi milliy g‘oyalar bilan chiqqan ziyolilar, 1918-1924-yillardagi qarshilik harakati ishtirokchilari hamda ularning qarindosh-urug‘lari sovet hokimiyati tomonidan qatag‘onga uchradilar. Qatag‘onga uchragan kishilar sharoiti og‘ir hududlarga qurilish ishlariga, xususan, “Belomorkanal”, “Belbaltlag”, “Dmitlag” kabi asosan mahbuslar kuchi bilan bunyod etilgan ulkan qurilishlarni qisqa muddatlarda nihoyasiga yetkazish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zb.1. p Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. — Toshkent: “Sharq”, 1998.
2. Yunosov A. Muzeysunoslik asoslari. — Toshkent: “Fan”, 2012.
3. Abdullaeva N. O‘zbekiston muzeylari tarixi va rivoji. — Toshkent: “Turan-Iqbol”, 2020.
4. Assmann J. Cultural Memory and Early Civilization: Writing, Remembrance, and Political Imagination. — Cambridge University Press, 2011.
5. Hamidova M. Muzeylar va milliy o‘zlikni anglash. — “Ijtimoiy fanlar” jurnali, №3, 2021.
6. UNESCO. Museums and Cultural Memory: The Role of Museums in Preserving Intangible Heritage.* — Paris, 2018.